

O‘zbekiston Respublikasi Prezident tomonidan 2025-yil 5-martdagi nutqida belgilab berilgan vazifalar va maqsadlar

Davlatimiz rahbari so‘zining avvalida islohotlar hal qiluvchi bosqichga kirayotgan hozirgi vaqtda yurtimizda korrupsiyadan xoli muhit yaratish bo‘yicha ishlarga baho berib, kelgusi vazifalarni aniq belgilab olish zarurligini ta’kidladi.

Shu bois, yig‘ilishda korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha eng muhim vazifa va maqsadlarni belgilab berdi. Jumladan:

Korrupsiyaga qarshi kurashish hududiy kengashlari tarkibi to‘liq yangilanib, ularga viloyat xalq deputatlari kengashi raislari rahbarlik qilishi;

Sog‘liqni saqlash, Qurilish, Suv xo‘jaligi vazirliklari, “O‘zbekneftgaz” va “O‘zsuvta‘minot”ning komplaens-nazorat tuzilmasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga o‘tkazilishi;

Komplaens-nazorat tuzilmalari to‘g‘ridan-to‘g‘ri birinchi rahbar bilan ishlashi;

Davlat idoralaridagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xaridlar 2 karra qisqartirilishi;

Davlat xaridlarida qonunga zid holatlarni sun‘iy intellekt yordamida aniqlash va oldini olish bo‘yicha elektron tizim ishga tushirilishi;

Davlat xaridlarida tovarlarning o‘rtacha bozor narxlari ko‘rinib turadigan elektron platforma yaratilishi;

Byudjet va byudjetdan tashqari mablag‘ hisobidan asosiy vositalarni xarid qilish bo‘yicha talablar kuchaytirilishi;

Investitsiya loyihalarida xalqaro korrupsiyaga qarshi standartlar joriy etilishi;

Yirik auksion shartlarini raqobatdoshlik ekspertizasidan o‘tkazish yo‘lga qo‘yilishi;

Davlat xizmatchilari reestri shakllantirilishi;

Kadrlarning korrupsiyaga moyilligini o‘rganish amaliyoti joriy qilinishi;

Davlat idoralaridagi xizmat avtotransportlarini milliy avtomobillarga o‘tkazish choralari ko‘rilishi;

Davlat xizmatchilarining mol mulki va daromadlarini deklaratsiya qilish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi jamoatchilik muhokamasiga qo‘yilishi;

Noqonuniy boylik orttirganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilanishi;

Kiberkorrupsiyaga qarshi samarali kurashish bo‘yicha mustahkam huquqiy baza yaratilishi;

Korrupsiyaviy jinoyatlarning aniq ro'yxati, korrupsiyaviy jinoyatlarni fosh etishga yordam berganlarni rag'batlantirishni nazarda tutuvchi qonun qabul qilinishi;

Maktablarda "Tarbiya" fani doirasida halollik, birovni haqiga xiyonat qilmaslik kabi ezgu g'oyalar sodda tilda tushuntirib borilishi;

Talaba va yoshlarning korrupsiyaga qarshi loyihalari, startap va innovatsion tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash tizimi yo'lga qo'yilishi;

Korrupsiyaga qarshi kurashish Virtual akademiyasida 2025 yilda 2 million aholi bepul o'qitilishi;

Nodavlat tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi kurashishga oid loyihalarini qo'llab-quvvatlashga har yili 10 milliard so'mdan ajratib borilishi.

Davlatimiz rahbari so'zining avvalida islohotlar hal qiluvchi bosqichga kirayotgan hozirgi vaqtda yurtimizda korrupsiyadan xoli muhit yaratish bo'yicha ishlarga baho berib, kelgusi vazifalarni aniq belgilab olish zarurligini ta'kidladi.

Prezidentimiz Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatidan mutlaqo noroziligini aytdi.

Agentlik xodimlari vazirliklarga, hududlarga borib, aniq bir sohani tahlil qilib, muammolarga yechim berish o'rniga, qo'zg'atilgan jinoyat ishlarini sanaydigan quruq statist bo'lib qolgani qayd etildi.

Agentlik rahbariyati korrupsiya holati eng ko'p bo'lgan tuman sog'liqni saqlash, bandlik bo'limi yoki bank filialiga borib, holatni o'rganmagani, yangi zamonaviy tizim bo'yicha taklif bermagani ko'rsatib o'tildi. Ushbu sohalarning bevosita rahbarlarining o'z tizimini "korrupsiyadan xoli" qilish ishlari sustligi tanqid qilindi.

Prezident topshirig'i bilan investitsiya dasturlari ustidan nazorat kuchaytirilganidan keyin o'tgan yilni o'zida 3 trillion so'm iqtisod bo'ldi. Yoki sog'liqni saqlash tizimida "Situatsion markaz" ishga tushirilgani hisobiga 2024-yilda 1,2 trillion so'mlik maqsadsiz xarajatlarning oldi olindi.

Huquq-tartibot idoralari asosan korrupsiyani aniqlash va jazolash bilan ishlab, korrupsiyaviy omillarni tag-tomiri bilan yo'qotadigan preventiv choralarni e'tiborsiz qoldirayotgani qayd etildi.

Korrupsiyani oldini olish, omillari bilan ishlash uchun 117 ta vazirlik va idoradagi "korrupsiyaga qarshi ichki nazorat" tuzilmalarida 1 ming 285 xodim ishlamoqda. Lekin, korrupsiyaviy omillarni bartaraf etishda ularning o'rni ham, mas'uliyati ham sezilmayotgani qayd etildi.

Har yili biznes muhitini yaxshilash, investitsiya jalb qilish, yangi ish o‘rinlari yaratishda byurokratiya va to‘siqlarga barham berish bo‘yicha o‘nlab qarorlar qabul qilinmoqda.

Masalan, 6,5 ming turdagi mahsulotni ishlab chiqarish va olib kirishda tadbirkorlarga muvofiqlikni baholash majburiyati yuklangan. Shundan 3 ming 700 turdagi tovar bo‘yicha har bir partiyaga alohida sertifikat olish shart.

Shunday ro‘yxatlar sanitariya, karantin, veterinariya idoralarida ham bor. Bojxona esa bu ro‘yxatlarni hammasi bilan ishlaydi.

Tadbirkorlarni qiynab, korrupsiyaga omil bo‘layotgan bunday ro‘yxatlarni qisqartirish bo‘yicha bu idoralarning komplaens xodimlari hech qanday taklif bermagan.

Vazirlik va idoralardagi ichki nazorat tuzilmalarining korrupsiya omillarini bartaraf etishda o‘rni sezilmayotgani qayd etildi